YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH YUZASIDAN ILK NAZARIY QARASHLARNING VUJUDGA KELISHI

O'rinboyeva Nodirabegim Ilyosjon qizi
University of Business and Science
tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqidagi ilk nazariy qarashlarning vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, birlamchi manbalarni mazmuniy o'rganish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Antik davr faylasuflari, Sharq mutafakkirlari, jadid ma'rifatparvarlari hamda XX asr pedagoglari qarashlari asosida vatanparvarlik tushunchasi talqinining harbiy-fuqarolik mazmundan ma'naviy-axloqiy va shaxsiy-ijtimoiy mazmunga qarab boyib borgani aniqlangan. Natijada vatanparvarlik tarbiyasi g'oyalari rivojining olti bosqichli davriylashtirilishi taklif etilgan va ularning umumta'lim maktablaridagi tarbiyaviy jarayon uchun ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *vatan, vatanparvarlik, tarbiya, qadriyat, pedagogik tafakkur, komil inson, jadidlar, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy.*

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ПЕРВЫХ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ НА ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА

Аннотация: *В статье анализируются возникновение первых теоретических взглядов на воспитание молодежи в духе патриотизма и исторические этапы их развития. В исследовании использованы методы историко-сравнительного анализа, содержательного изучения первоисточников и систематизации. На основе взглядов античных философов, мыслителей Востока, джадидов-просветителей и педагогов XX века установлено, что содержание понятия патриотизма обогащалось от военно-гражданского к духовно-нравственному и личностно-социальному. В результате предложена шестиэтапная периодизация развития идей патриотического воспитания и обосновано их значение для воспитательного процесса в общеобразовательных школах.*

Ключевые слова: *Родина, патриотизм, воспитание, ценность, педагогическая мысль, совершенный человек, джадиды, Платон, Аристотель, Фараби, Ибн Сина, Навои.*

THE EMERGENCE OF EARLY THEORETICAL PERSPECTIVES ON EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

Abstract: *The article analyzes the emergence of the earliest theoretical views on educating young people in the spirit of patriotism and the historical stages of their development. The study employs historical-comparative analysis, content analysis of primary sources and systematization. Based on the views of ancient philosophers, Eastern thinkers, Jadid enlighteners and twentieth-century educators, it is shown that the meaning of patriotism evolved from a military-civic notion toward a spiritual-moral and personal-social one. As a result, a six-stage periodization of the development of patriotic education ideas is proposed and its significance for the educational process in general secondary schools is substantiated.*

Keywords: *homeland, patriotism, upbringing, value, pedagogical thought, perfect person, Jadids, Plato, Aristotle, Al-Farabi, Avicenna, Navoi.*

KIRISH

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lib kelgan. Har bir jamiyat o'zining siyosiy barqarorligi, hududiy yaxlitligi va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda yosh avlodni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat va xalq manfaatlariga daxldorlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratgan. Shu bois vatanparvarlik tushunchasi va uni yoshlar ongiga singdirishning nazariy asoslari qadimgi davrlardanoq shakllana boshlagan.

Globallashuv sharoitida axborot oqimining keskin ortishi, ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi yoshlarning milliy o'zlikni anglashi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasini yanada dolzarb qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham ta'limning asosiy tamoyillaridan biri sifatida yoshlarni Vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash belgilangan[10]. Bunday vazifani samarali hal etish uchun avvalo vatanparvarlik tarbiyasi g'oyalarining tarixiy ildizlarini, ularning qanday shakllangani va qaysi yo'nalishda rivojlanganini ilmiy jihatdan o'rganish talab etiladi.

Tadqiqotning maqsadi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yuzasidan ilk nazariy qarashlarning vujudga kelishini tarixiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish,

[10]O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.

ularning rivojlanish bosqichlarini aniqlash va zamonaviy tarbiya amaliyoti uchun ahamiyatini ochib berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Vatanparvarlik tushunchasi ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida "Vatan" va "parvar" so'zlarining uyg'unlashuvidan hosil bo'lib, insonning o'z yurti, xalqi, milliy qadriyatlari va davlat manfaatlariga sadoqatini ifodalaydi[11]. Mazkur tushuncha tarixiy taraqqiyot davomida turli xalqlarning siyosiy, diniy va madaniy qarashlari asosida boyib borgan.

Masalaga oid manbalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni mutafakkirlarning birlamchi asarlari tashkil etadi. Bular jumlasiga Platonning "Davlat"[12], Aristotelning "Siyosat"[13], Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri"[14], Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"[15], Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub"[16] va Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq"[17] asarlari kiradi. Ikkinchi guruhni pedagogika tarixiga oid tadqiqotlar tashkil etadi. K.Hoshimov va S.Nishonovaning "Pedagogika tarixi" darsligida[18] Sharq mutafakkirlarining tarbiyaviy qarashlari tizimli yoritilgan bo'lsa, Z.Xoshimjonova Abu Rayhon Beruniyning pedagogik merosini alohida tahlil qilgan[19]. Uchinchi guruhga vatanparvarlik tarbiyasining nazariy-metodik va davlat siyosati darajasidagi asoslarini yorituvchi manbalar kiradi. V.A.Suxomlinskiyning "Fuqaroning tug'ilishi" asari[20], I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"[21] hamda Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi"[22] asarlari shular jumlasidandir.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mutafakkirlarning vatanparvarlik haqidagi qarashlari ko'p hollarda alohida-alohida o'rganilgan, ularni yagona tarixiy-pedagogik

[11]O'zbek tilining izohli lug'ati. "Vatanparvar" so'zi [Elektron resurs]. URL: https://izoh.uz/word/vatanparvar

[12]Платон. Государство // Собрание сочинений в 4 т. Т. 3. – М.: Мысль, 1994.

[13]Аристотель. Политика // Сочинения в 4 т. Т. 4. – М.: Мысль, 1983.

[14]Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

[15]Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Fan, 1971.

[16]Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.

[17]Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

[18]Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

[19]Xoshimjonova Z. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari // Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. Respublika konferensiyasi materiallari. 30-to'plam, 2-qism. – 2024-yil, aprel.

[20]Сухомлинский В.А. Рождение гражданина. – М.: Молодая гвардия, 1971.

[21]Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

[22]Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

jarayon sifatida qiyosiy tahlil qilish va bosqichlarga ajratish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiylik va tizimlilik tamoyillariga tayanildi. Asosiy metodlar sifatida tarixiy-qiyosiy tahlil, birlamchi manbalarni mazmuniy (kontent) tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy tahlil turli davr mutafakkirlarining vatanparvarlik haqidagi qarashlarini o‘zaro solishtirish imkonini berdi. Mazmuniy tahlil yordamida har bir manbada vatanparvarlik tushunchasining qaysi jihati, ya’ni harbiy, fuqarolik, axloqiy, ma’rifiy yoki milliy jihati yetakchi ekani aniqlandi. Olingan ma’lumotlar umumlashtirilib, vatanparvarlik tarbiyasi g‘oyalari rivojining davriylashtirilgan tizimi ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, qadimgi Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarida yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Qadimgi Yunonistonda Platon “Davlat” asarida fuqarolarni, ayniqsa davlat qo‘riqchilarini Vatanga sadoqat va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish tamoyillari asosida tarbiyalash zarurligini ta’kidlagan[23]. Aristotel esa insonni “ijtimoiy mavjudot” deb atab, uning kamoloti davlat va jamiyat bilan uzviy bog‘liqligini qayd etgan hamda yoshlarni qonunlarga hurmat va ijtimoiy mas‘uliyat ruhida tarbiyalashni davlatning asosiy vazifasi deb bilgan[24]. Antik davrda vatanparvarlik asosan harbiy jasorat va fuqarolik burchi sifatida talqin etilgani ko‘rinadi.

Sharq mutafakkirlari merosida vatanparvarlik g‘oyasi axloqiy-ma’rifiy mazmun bilan boyidi. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyat taraqqiyoti barkamol shaxslarni tarbiyalash bilan bog‘liq ekanini asoslab bergan[25]. Mutafakkir insonning axloqiy yetukligi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini davlat ravnaqining asosiy omili deb hisoblaydi. Forobiy qarashlarida yoshlarni ezgulik, adolat va o‘z shahri, ya’ni jamoasi manfaatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash g‘oyasi yetakchi o‘rin tutadi.

Abu Rayhon Beruniy ilm-fan, ma’rifat va xalq manfaatlariga xizmat qilishni insonning eng oliy burchi sifatida baholagan[26]. Olim ilmli va ma’rifatli avlodni tarbiyalash orqali davlat taraqqiyotiga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning

[23]Платон. Государство // Собрание сочинений в 4 т. Т. 3. – М.: Мысль, 1994.

[24]Аристотель. Политика // Сочинения в 4 т. Т. 4. – М.: Мысль, 1983.

[25]Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

[26]Xoshimjonova Z. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari // Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. Respublika konferensiyasi materiallari. 30-to‘plam, 2-qism. – 2024-yil, aprel.

qarashicha, inson o‘z yurti ravnaqi uchun xizmat qilgandagina haqiqiy kamolotga erishadi. Abu Ali ibn Sino esa yoshlarni ma’naviy poklik, halollik, jasorat va jamiyat manfaatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasiga katta e’tibor qaratgan[27]. U tarbiyaning asosiy maqsadini komil insonni shakllantirishda ko‘radi. Komil inson esa nafaqat bilimli, balki o‘z xalqi va yurti manfaatlarini himoya qila oladigan shaxs sifatida talqin qilinadi.

Turkiy xalqlar ma’naviy merosida bu g‘oya davlatchilik qadriyatlari bilan uyg‘un holda rivojlangan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida el-yurtga sadoqat, adolatli boshqaruv va bilimning davlat barqarorligidagi o‘rni haqidagi qarashlar markaziy o‘rinda turadi[28]. Alisher Navoiy asarlarida esa xalqparvarlik, yurtga muhabbat, insonparvarlik va adolat g‘oyalari keng yoritilgan. Shoir “Mahbub ul-qulub” asarida jamiyatning turli tabaqalari vakillarini xalq manfaatiga xizmat qilish mezoni asosida baholaydi[29]. Navoiy yoshlarni ilm-ma’rifatli, halol, fidoyi va xalqqa naf keltiradigan insonlar qilib tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadid ma’rifatparvarlari faoliyatida yoshlarni milliy ong va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ustuvor yo‘nalishga aylandi. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida Vatan muhabbatini inson axloqining asosiy mezonlaridan biri sifatida qayd etgan[30]. U yoshlarni milliy qadriyatlar, ona tiliga hurmat va yurt ravnaqiga daxldorlik ruhida tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan. Avloniy ta’lim-tarbiyani millat taraqqiyotining asosiy omili deb bilib, maktabning yosh avlodni vatanparvar etib shakllantirishdagi o‘rniga alohida urg‘u bergan. Aynan shu davrda vatanparvarlik birinchi marta milliy uyg‘onish va maktab islohoti bilan bevosita bog‘landi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab vatanparvarlik tarbiyasi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarining muhim tadqiqot obyektiga aylandi. V.A.Suxomlinskiy fuqarolik tuyg‘usini bolaning ona yurti tabiati, oilasi va mehnatiga bo‘lgan munosabati orqali shakllantirish g‘oyasini asoslagan[31]. Bu davrda vatanparvarlik tushunchasi shaxsning fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas’uliyati va davlat manfaatlariga daxldorligi kabi komponentlar bilan boyitildi, uni tarbiyalashning tamoyillari, shakllari va metodlari ilmiy asosda ishlab chiqildi.

[27]Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
[28]Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Fan, 1971.
[29]Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
[30]Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
[31]Сухомлинский В.А. Рождение гражданина. – М.: Молодая гвардия, 1971.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Milliy tiklanish jarayonida ma’naviyat millat taraqqiyotining hal qiluvchi kuchi sifatida e’tirof etildi[32]. Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasida ham yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalash muhim vazifa sifatida belgilangan[33].

O‘tkazilgan tahlil natijasida vatanparvarlik tarbiyasi g‘oyalari rivojining quyidagi davriylashtirilgan tizimi ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Vatanparvarlik tarbiyasi g‘oyalari rivojining tarixiy bosqichlari

Davr	Asosiy namoyandalar	Vatanparvarlik talqinining yetakchi jihati
Antik davr (mil. avv. V–IV asrlar)	Platon, Aristotel	Harbiy jasorat, fuqarolik burchi, davlat manfaatlariga xizmat
Sharq Uyg‘onish davri (IX–XII asrlar)	Forobiy, Beruniy, Ibn Sino	Komil inson, axloqiy yetuklik, ilm orqali jamiyatga xizmat
Turkiy davlatchilik va Temuriylar davri (XI–XV asrlar)	Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy	El-yurtga sadoqat, xalqparvarlik, adolat
Jadidchilik davri (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	Abdulla Avloniy va boshqa jadidlar	Milliy ong, ona tili, maktab orqali millat taraqqiyoti
XX asrning ikkinchi yarmi	V.A.Suxomlinskiy va boshqa pedagog olimlar	Fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas‘uliyat, ilmiy-metodik tizim
Mustaqillik davri (1991-yildan hozirgacha)	Davlat siyosati, milliy pedagogika	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, daxldorlik

Jadval ma’lumotlari vatanparvarlik tushunchasining har bir bosqichda oldingi mazmunni inkor etmasdan, unga yangi qatlam qo‘shib borganini ko‘rsatadi. Harbiy-

[32]Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
[33]Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

fuqarolik mazmuni axloqiy, so‘ngra ma’rifiy, milliy va nihoyat shaxsiy-ijtimoiy mazmun bilan to‘ldirilgan.

MUHOKAMA

Olingan natijalar vatanparvarlikni faqat harbiy tayyorgarlik yoki rasmiy tadbirlar bilan cheklab talqin etish uning tarixan shakllangan mazmunini toraytirib yuborishini ko‘rsatadi. Sharq mutafakkirlari merosida vatanparvarlik komil inson konsepsiyasining tarkibiy qismi sifatida ilm, adolat, halollik va mehnatsevarlik bilan bir butunlikda qaralgan. Bu jihat antik davr qarashlaridan farqli o‘laroq tarbiyaning ichki, shaxsiy-axloqiy asosiga urg‘u berilganini anglatadi.

Shu bilan birga, Platon va Aristotel ilgari surgan davlat va fuqaro o‘rtasidagi o‘zaro mas’uliyat g‘oyasi zamonaviy fuqarolik tarbiyasi uchun ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Jadidlar merosi esa vatanparvarlikni ona tili, milliy tarix va maktab ta’limi bilan bog‘lash an’anasini yaratganligi bilan qimmatlidir. Ushbu an’ana bugungi umumta’lim maktablarida ona tili, adabiyot va tarix darslarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishga nazariy asos bo‘la oladi.

Mazkur tadqiqotning cheklovi shundaki, unda asosan mutafakkirlarning nazariy qarashlari tahlil qilingan, ularning tarixiy ta’lim muassasalari amaliyotida qanday qo‘llangani alohida o‘rganilmagan. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu g‘oyalarni zamonaviy maktab o‘quvchilarining vatanparvarlik tarbiyasiga tatbiq etish modellarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini tajriba-sinov orqali tekshirish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yuzasidan ilk nazariy qarashlar antik davrdayoq shakllangan bo‘lib, Sharq va G‘arb mutafakkirlari, ma’rifatparvar pedagoglar hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlar orqali izchil rivojlanib kelgan. Tadqiqot natijasida vatanparvarlik tarbiyasi g‘oyalari rivojining olti bosqichli davriylashtirilishi taklif etildi va har bir bosqichda tushuncha mazmunining yangi qatlam bilan boyib borgani asoslandi.

Mutafakkirlar merosidagi komil inson, xalqqa xizmat, ilm va adolat haqidagi g‘oyalar bugungi kunda umumta’lim maktablarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslarini tashkil etadi. Ushbu merosni ona tili, adabiyot, tarix va tarbiya darslari mazmuniga tizimli integratsiya qilish o‘quvchilarda milliy g‘urur, fuqarolik mas’uliyati va Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirishning samarali yo‘li hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “Vatanparvar” so‘zi [Elektron resurs]. URL: https://izoh.uz/word/vatanparvar

2. Платон. Государство // Собрание сочинений в 4 т. Т. 3. – М.: Мысль, 1994.

3. Аристотель. Политика // Сочинения в 4 т. Т. 4. – М.: Мысль, 1983.

4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

5. Xoshimjonova Z. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari // Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. Respublika konferensiyasi materiallari. 30-to'plam, 2-qism. – 2024-yil, aprel.

6. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Fan, 1971.

8. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.

9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

10. Сухомлинский В.А. Рождение гражданина. – М.: Молодая гвардия, 1971.

11. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.

12. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

13. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.